



Tadqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IJTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2025

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

YANVAR

№ 72
TOSHKENT



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
2-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-2**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC RESEARCH
PART-2**

ТОШКЕНТ-2025



ФАРМАЦЕВТИКА ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

“YUGELM” KAPSULALARINI ISHLAB CHIQISHGA DOIR TADQIQOTLAR

Radjapova Nozima Shavkatovna,
Toshkent farmatsevtika instituti
mustaqil-izlanuvchi
Telefon: +998994614067
nozima.radjapova76@gmail.com
Kariyeva Yoqut Saidkarimovna
f.f.d., professor,
Toshkent farmatsevtika instituti
kafedra mudiri
Telefon: +998911320212
yosk@mail.ru

Annotatsiya. Grek yong'og'i bargidan (*Juglans regia* L.) olingan quruq ekstrakt asosida «Yugelm» kapsulalarining tarkibini tanlash, texnologiyasini taklif qilish, sifat ko'rsatkichlari, yaroqlilik muddati va saqlash sharoitlarini belgilash bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Kapsulalanadigan massa tarkibiga kiritiladigan yordamchi moddalar majmuasi substansiyaning texnologik xususiyatlarini o'rganish asosida olib borildi va tanlangan tarkib asosida nam donadorlash usuli bilan texnologiya ishlab chiqildi. «Yugelm» kapsulasining sifat va miqdoriy tahlillari RF DF XIV va O'zR DF 1-jild maqolalarida keltirilgan talablar (tashqi ko'rinishi, tozaligi, kapsulaning o'rtacha og'irligi va inkapsulangan massaning o'rtacha og'irligi hamda ushbu ko'rsatkichlardan chetlanishi, parchalanishi, erishi, mikrobiologik tozaligi, yuglonga nisbatan naftoxinonlar miqdori) o'rganildi va me'yorlari belgilandi. Shuningdek, kapsulalarning yaroqlilik muddati aniqlandi.

Kalit so'zlar: grek yong'og'i (*Juglans regia* L.), quruq ekstrakt, kapsulalar, tarkib, texnologiya, sifat va miqdor ko'rsatkichlari, turg'unlik, qadoqlovchi materiallar, yuglon.

Insonning hayot faoliyatida yong'oqning ahamiyati juda katta. Yong'oq mevasi boshqa mevalardan ozuqaviy xususiyatlariga ko'ra yuqori kaloriyaliligi bilan ajralib turadi. Yong'oq mag'zida temir, fosfor, mis, serotonin moddalari, 58–77 % yog', 12–25% oqsil va 5–25 % uglevodlar mavjud. Uni iste'mol qilgan kishi quvvatini oshirib, asab tizimining faoliyatini me'yorlashtiradi. Yong'oq moyi qondagi xolesterinni kamaytirib, yurak-qon tomirlarida tiqinlar, buyrak va o't pufagida tosh paydo bo'lishini bartaraf etadi. Bargidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida me'da-ichak yallig'lanishi, ich ketishi, diabet va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Shuningdek, grek yong'og'i bargining shirasi temiratk, teri kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Qorin og'riganda va ko'ngil ayniganda yong'oq mag'zini iste'mol qilish buyuriladi. Bargidan olingan yuglon preparati (surtma, eritma va suspenziyalar) ilmiy tibbiyotda gelmintlarga qarshi, teri sili, ekzema, surunkali epidermofitiya, terining yuqumli, yiringli va boshqa kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi [1,2].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Toshkent farmatsevtika institutida ilk bor “Yugelm” kapsulalarining tarkibini tanlash, texnologiyasini taklif qilish, sifat ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Grek yong'og'i barglaridan olingan quruq ekstraktning struktura-mexanik va texnologik xossalarini aniqlash natijasida, turli yordamchi moddalar majmuasidan foydalanib namuna kapsulalar tayyorlandi va barchasini sifat ko'rsatkichlari aniqlandi. Olingan natijalarga asosan “Yugelm” kapsulalari uchun quyidagi tarkib taklif etildi:

Quruq ekstrakt 0,15 g
MKTS 0,05 g
Aerosil 0,05 g
Kraxmal kleysteri q.s.
Bir kapsuladagi massaning o'rtacha og'irligi 0,25 g



“Yugelm” kapsula shaklidagi BFQning texnologik jarayoni quyidagi texnologik bosqichlarni oʻz ichiga oladi: Teshik diametri 150 mkm boʻlgan elakdan oʻtkazilgan quruq ekstrakt, MKTS va aerosil kerakli miqdorda tortib olindi. Kukunlarni umumiy tayyorlanish qoidalari asosida quruq ekstrakt, MKTS, aerosil birgalikda bir xil massa hosil boʻlguncha aralashtirildi. Aralashtirish jarayonida doimiy ravishda kraxmal kleysteri bilan namlab borildi. Tayyor boʻlgan massani quritish shkaftida 40-50°C haroratda 10-15% qoldiq namlikkacha quritildi. Soʻngra massani granulyatsiya qilinib, optimal qoldiq namlik (2-3%) qolgunga qadar quritish davom ettirildi. Olinga massa 0,25 gr dan 1-raqamli kapsulalarga qadoqlandi.

Soʻngra kapsulalarning sifati quyidagi parametrlar boʻyicha baholandi: tashqi koʻrinishi, chinligi, kapsulaning oʻrtacha ogʻirligi va inkapsulalangan massaning oʻrtacha ogʻirligi, shuningdek, ushbu koʻrsatkichlardan ogʻishi, parchalanishi, erishi, mikrobiologik tozaligi va asosiy biologik faol moddaning miqdori.

Olingan natijalarga koʻra, tahlil qilingan kapsulalar 30 oylik kuzatish davomida tashqi koʻrinishini oʻzgartirmagan. Kapsulalarning oʻrtacha ogʻirligi maqbul chegaralar ichida (0,266-0,326 g) boʻlib, 0,307 g dan 0,321 g gacha oʻzgargan. Shu bilan birga, chetlanishlar belgilangan meʼyordan yaʼni, 10 % dan oshmadi.

Kapsulalar ichidagi massaning ogʻirligidagi chetlanish ham MHda koʻrsatilgan chegaralar ichida boʻldi va ogʻishlar 0,4% dan 6,8% gacha oʻzgardi. Shuningdek, kapsulalarning parchalanish koʻrsatkichi 14 daqiqa 10 soniyadan oshmadi. Mikrobiologik tozaligi boʻyicha ham kapsulalar meʼyoriy hujjatlar talablariga javob berdi.

Tahlil qilingan kapsulalarda naftoxinonlar miqdorining yuglonga nisbatan koʻrsatkichi 0,84% dan 0,72% gacha oʻzgardi, lekin belgilangan miqdordan kam boʻlmadi. Biroq, 30-oyning oxirida u 0,72% ni tashkil etdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, grek yongʻogʻi (*Juglans regia* L.) bargidan olingan quruq ekstrakti asosida ishlab chiqilgan kapsula uchun foydalanilgan qadoq turlarida saqlash muddati 2 yil deb belgilandi.

Adabiyotlar.

1. Egambergiyev M.X., Karimov I.A., Roʻziqulov D.N. Grek yongʻogʻining (*Juglans regia* L.) dorivorlik xususiyati. Volume 3 | Special Conference 1 | 2022 Mevachilik va uzumchilikning rivojlanishida ilm-fan yutuqlari.- 497-499 b.

2. Еникеева Р. А., «Орех грецкий *Juglans regia* L. и его применение в медицинской, в том числе гомеопатической практике» / сб. научных трудов «Российский гомеопатический съезд» (19-21 октября 2007 г). - М.:2007.-С.216-217



Абдуллаев Абдуллазиз Абдумаликович, Джураев Ж.А. ОЦЕНКА ВИЗУАЛИЗАЦИИ ПРИ ЭНДОСКОПИЧЕСКОЙ ХИРУРГИИ ХРОНИЧЕСКОГО ПОЛИПОЗНОГО РИНОСИНУСИТА.....	170
--	-----

ФАРМАЦЕВТИКА ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Radjapova Nozima Shavkatovna, Kariyeva Yoqut Saidkarimovna “YUGELM” KAPSULALARINI ISHLAB CHIQISHGA DOIR TADQIQOTLAR.....	173
Raximova M.A., Maksudova F.X. NOSTEROID YALLIG’LANISHGA QARSHI VOSITALARI ISTE’MOLINING FARMA- KOIQTISODIY TADQIQOTLARI	175
Nusratova N.N., Maksudova F.X. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ANTIBIOTIK PREPARATLAR FARMASEVTIK BOZO- RINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	177
Умаралиева Нилуфар Равшан кизи, Максудова Фируза Хуршидовна, Файзуллаева Нодира Султановна ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗРАБОТКИ ЭНТЕРОСОСОРБЕНТНЫХ ПРЕПАРАТОВ НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО МИНЕРАЛЬНОГО СЫРЬЯ ГЛАУКОНИТА	178
Рахманова Зарина Абдукаримовна, Тиллаева Умида Махмуджановна, Тагайалиева Нигора Абдунабиевна ИЗУЧЕНИЕ КУМУЛЯТИВНОГО ДЕЙСТВИЯ ГЕЛЯ ДЛЯ СТОМАТОЛОГИИ «БЕН- ЗПАЯ –С».....	184
Ташматова М.А., Юнусова Х.М., Илхамова Н.Б. МЕТФОРМИН ГИДРОХЛОРИД АСОСИДАГИ ТАБЛЕТКА МАССАСИНИНГ ТЕХНОЛОГИК ХОССАЛАРИНИ ЎРГАНИШ.....	186
Умаралиева Нилуфар Равшан кизи, Максудова Фируза Хуршидовна ИЗУЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ КАПСУЛ “FATIFILTRUM”	188

КИМЁ ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

T.R.Rustamov, X.M.Azizjanov KOMPLEKS BIRIKMA HOSIL QILISHDA KETOPROFEN VA MONOETANOLAMINLARN- ING BA’ZI FIZIK-KIMYOVIY HAMDA BIOLOGIK XOSSALARINI KVANT-KIMYOVIY TAHLIL QILISH	190
---	-----

БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Ahmadjonova Gulshoda "TAXONOMY, ECOLOGY, AND GEOGRAPHY OF TAMARIX L. SPECIES DISTRIBUTED IN THE FERGANA VALLEY"	192
---	-----

АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Эшмурзаев Жасур Элмуратович ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИДА ҚУЛУПНАЙ БИЛАН БАНД БЎЛГАН ДАЛАЛАРДА ФУЗАРИОЗ КАСАЛЛИГИНИ ТАРҚАЛИШИ.....	194
--	-----